

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



MAMLAKATSHUNOSLIK
FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	–	San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000	–	Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100	–	Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili)

Toshkent-2025

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
MAM1304	2024-2025	3	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek / Rus	48	4
Fanning nomi	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
Mamlakatshunoslik	72	120	
<p>1.</p> <p>I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga Turkiya davlati haqida keng qamrovli va tizimli bilim berishdir. Fan doirasida talabalar Turkiyaning geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, aholisi, siyosiy tuzumi, iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti, madaniyati va ta'lim tizimi bilan tanishtiriladi. Shu orqali talabalar Turkiyani har tomonlama o'rganish, uning tarixiy va zamonaviy holati haqida puxta tasavvurga ega bo'ladilar.</p> <p>Fanning maqsadi shuningdek, talabalarni xalqaro taqqoslash asosida ta'limiy fikrlashga, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni chuqurroq anglashga yo'naltirishdan iborat. Talabalarda turkiy xalqlarning o'zaro yaqinligi, umumiy tarixiy ildizlari va zamonaviy hamkorlik yo'nalishlari haqida bilim va tushunchalar shakllantiriladi.</p> <p>Fanning vazifasi - quyidagilardan iborat:</p> <p>1. Talabalarda tizimli bilim shakllantirish – o'rganilayotgan mamlakat yoki mintaqaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va tarixiy xususiyatlarini kompleks tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish.</p> <p>2. Tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish – mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni solishtirish, voqealar va jarayonlarga chuqur yondashish ko'nikmasini berish.</p> <p>3. Xalqaro kontekstda bilim berish – global va mintaqaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mamlakatlar haqida obyektiv va yangilanadigan ma'lumotlarni o'rgatish.</p> <p>4. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish – diplomatik, tarjimonlik, siyosiy va madaniy muloqotda zarur bo'lgan bilim va malakalarni egallashga ko'maklashish.</p> <p>5. Mamlakatlararo tushunishni mustahkamlash – turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmat, to'g'ri tushunish va muloqot madaniyatini rivojlantirish.</p>			
<p>2.</p>			

Xorij tajribasiga muvofiqligi

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Oxford School of Global and Area Studies** ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.

<https://www.mes.ox.ac.uk>

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)

III.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

1-mavzu: XI - XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi. Saljuqiylar davlati. Salib yurishlari. Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi. Harbiy – siyosiy tizim. (2 soat)

2-mavzu: XI - XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi. Iqtisodiy hayot. Madaniyati. Kichik Osiyodagi mustaqil bекliklar. Karaman o'g'illari. Mentesh o'g'illari bekligi. Germiyon o'g'illari bekligi. Usmon o'g'illari bekligi. (2 soat)

3-mavzu: XI - XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi. Boshqaruv tizimi. Iqtisodiyoti. Usmoniylar davlatining tashkil topishi. (2 soat)

4-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi. Usmoniylarning jahon imperiyasiga aylanishi. Ijtimoiy-siyosiy hayot. Islom dinining tarixiy taraqqiyotga ta'siri. Usmoniylar imperiyasining inqirozi. (2 soat)

5-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi. XVII - XVIII asrlardagi tanazzul alomatlari. Ko'pyulu islohotlari. Usmoniylar imperiyasi inqirozining boshlanishi. Salim III islohotlari. XVI – XVIII asrlarda Usmoniylar madaniyati. Imperiyaning tashkiliy tuzilishi. Ma'muriy idora. Adabiyot. (2 soat)

6-mavzu: XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Usmoniylar davlati. Panturkizm. Turkiya Birinchi jahon urushi yillarida. Turkiyaning urushga kirishi. (2 soat)

7-mavzu: XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Usmoniylar davlati. Versal tinchlik shartnomasi. Sevr tinchlik shartnomasi. Turkiya Respublikasining tashkil topishi. 1923 – yildan keyin Turkiya. Turkiya ta'lim tizimi. Tashqi siyosat. Iqtisodiyot. (2 soat)

8-mavzu: II – jahon urushi va undan keyingi yillarda Turkiya. Turkiyaning 1982 – yil Konstitutsiyasi. (2 soat)

<p>9-mavzu: Turkiya Respublikasi - xalqaro munosabatlar tizimida. AQSh - Turkiya munosabatlari. (2 soat)</p> <p>10-mavzu: XXI asr boshida Turkiya ijtimoiy-madaniy hayoti. Davlat va din. Ta'lim tizimi. Sanoat. (2 soat)</p> <p>11-mavzu: Turkiyaning turizm salohiyati. (2 soat)</p> <p>12-mavzu: Turkiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalari. O'zbekiston - Turkiya munosabatlarining yorqin sahifalari. (2 soat)</p> <p style="text-align: center;">Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)</p> <p>1-mavzu: XI - XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniy imperiyasining tashkil topishi. Saljuqiylar davlati. Salib yurishlari. Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi. Harbiy - siyosiy tizim. (2 soat)</p> <p>2-mavzu: XI - XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniy imperiyasining tashkil topishi. Iqtisodiy hayot. Madaniyati. Kichik Osiyodagi mustaqil bекliklar. Karaman o'g'illari. Mentesh o'g'illari bekligi. Germiyon o'g'illari bekligi. Usmon o'g'illari bekligi. (2 soat)</p> <p>3-mavzu: XI - XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniy imperiyasining tashkil topishi. Boshqaruv tizimi. Iqtisodiyoti. Usmoniy davlatining tashkil topishi. (2 soat)</p> <p>4-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Usmoniy imperiyasi. Usmoniy larning jahon imperiyasiga aylanishi. Ijtimoiy-siyosiy hayot. Islom dinining tarixiy taraqqiyotga ta'siri. Usmoniy imperiyasining inqirozi. (2 soat)</p> <p>5-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Usmoniy imperiyasi. XVII-XVIII asrlardagi tanazzul alomatlari. Ko'pyulu islohotlari. Usmoniy imperiyasi inqirozining boshlanishi. Salim III islohotlari. XVI - XVIII asrlarda Usmoniy madaniyati. Imperiyaning tashkiliy tuzilishi. Ma'muriy idora. Adabiyot. (2 soat)</p> <p>6-mavzu: XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Usmoniy davlati. Panturkizm. Turkiya Birinchi jahon urushi yillarida. Turkiyaning urushga kirishi. (2 soat)</p> <p>7-mavzu: XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Usmoniy davlati. Versal tinchlik shartnomasi. Sevr tinchlik shartnomasi. Turkiya Respublikasining tashkil topishi. 1923 - yildan keyin Turkiya. Turkiya ta'lim tizimi. Tashqi siyosat. Iqtisodiyot. (2 soat)</p> <p>8-mavzu: II - jahon urushi va undan keyingi yillarda Turkiya. Turkiyaning 1982 - yil Konstitutsiyasi. (2 soat)</p> <p>9-mavzu: Turkiya Respublikasi - xalqaro munosabatlar tizimida. AQSh - Turkiya munosabatlari. (2 soat)</p>
--

<p>kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. - T.: O'zbekiston, 2019. - 400 b.</p> <p>6. Feridun M. Emecen. Osmanlı İmparatorluğu'nun Kuruluş ve Yükseliş Tarihi (1300-1600). - İstanbul: Ayhan matbaası, 2015. S. 489</p> <p>7. Киреев Н.Г. История Турии XX век. - Москва: ИВ РАН: Крафт, 2007. - 608 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>8. https://www.history.ru</p> <p>9. https://turuz.com</p> <p>10. https://www.ttk.gov.tr</p> <p>11. https://www.academia.edu</p>	<p>7. O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil 4 - <u>iyun</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (40 - sonli bayonnoma).</p>
<p>8. Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>H.Mahkamova - O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "Ikkinchi chet tili" kafedrası PhD o'qituvchi;</p> <p>N.Abduraximov - O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "Ikkinchi chet tili" kafedrası o'qituvchi;</p> <p>Z.Komilova - O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Ikkinchi chet tili" kafedrası stajyor-o'qituvchi.</p>	<p>9. Taqrizchilar:</p> <p>G.Xaliyeva - O'zDJTU, "Jahon adabiyoti" kafedrası mudiri f.f.d.,professor.</p> <p>A.Tilavov - TDO-TAU, "Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrası dotsenti, f.f.n.</p>

Ingiliz №3

fakultet dekani

Ikkinchi chet tillari

kafedrası mudiri

Universitet axborot resurs

markazi direktori.



E.Moydinova

S.Kayumova

S.Kayumova

<p>bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p>4 (yaxshi) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritiladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muvayyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.</p> <p>3 (qoniqarli) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.</p> <p>2 (qoniqarsiz) baho – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.</p>	<p>6. Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1. M.Mirzayev. "Mamlakatshunoslik (Turkiya geografyasi, tarixi, madaniyati va davlat utzumi)" (o'quv qo'llanma). - T.: TDSHI, 2020.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. - 56 b.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2018. – 512 b.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' halqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va</p>
--	--

<p>10-mavzu: XXI asr boshida Turkiya ijtimoiy-madaniy hayoti. Davlat va din. Ta'lim tizimi. Sanoat. (2 soat)</p> <p>11-mavzu: Turkiyaning turizm salohiyati. (2 soat)</p> <p>12-mavzu: Turkiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalari. O'zbekiston – Turkiya munosabatlarining yorqin sahifalari. (2 soat)</p> <p>III. Ma'ruza va Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:</p> <p>Ma'ruza, Seminar mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:</p> <p>Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</p> <p>- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlashi;</p> <p>- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;</p> <p>- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;</p> <p>- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;</p> <p>- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.</p> <p>Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p>
--

<p>- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;</p> <p>- badiiy-ijodiy ishini bajarish;</p> <p>- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;</p> <p>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;</p> <p>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</p> <p>- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Saljuqiylar davlati: tashkil topishi va tuzilishi (4 soat) 2. Salib yurishlarining Kichik Osiyo tarixiga ta'siri (4 soat) 3. Usmoniylar imperiyasining markaziy boshqaruv tizimi (XI–XV asrlar) (4 soat) 4. Kichik Osiyo bekliklari (Karaman, Mentesh, Germiyon) va ularning siyosiy roli (4 soat) 5. XI–XV asrlarda Kichik Osiyoning iqtisodiy hayoti (4 soat) 6. Kichik Osiyoning madaniy taraqqiyoti XI–XV asrlarda (4 soat) 7. Usmon o'g'illari bekligi: tashkil topishi va rivojlanishi (4 soat) 8. Usmoniylar imperiyasining harbiy-siyosiy tizimi XI–XV asrlarda (4 soat) 9. Usmoniylar davlatining tashkil topishi: tarixiy shart-sharoitlar (4 soat) 10. Usmoniylar imperiyasining iqtisodiyoti va uning asosiy manbalari (4 soat) 11. XVI–XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasining jahon imperiyasiga aylanishi (4 soat) 12. Islom dinining Usmoniylar imperiyasi ijtimoiy hayotiga ta'siri (4 soat) 13. Usmoniylar imperiyasining inqiroz sabablari (XVI–XVIII asrlar) (4 soat) 14. Ko'pyulu islohotlari va ularning natijalari (4 soat) 15. Salim III islohotlari: asosiy yo'nalishlar va ta'siri (4 soat) 16. XVI–XVIII asrlarda Usmoniylar adabiyoti va madaniy hayoti (4 soat) 17. Usmoniylar imperiyasining tashkiliy tuzilishi va ma'muriy idora tizimi (4 soat) 18. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Panturkizm harakati (4 soat) <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida tavsifiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsifiya etiladi.</p>	<p>3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p>
---	---

<ul style="list-style-type: none"> • Turkiya Respublikasi haqida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va saralash ko'nikmalariga ega bo'ladi; • Turli manbalardan, jumladan, ilmiy, ommaviy va rasmiy hujjatlardan foydalanib, ishonchli axborotni ajratib olishni o'rganadi; • turk xalqi madaniyati, qadriyatlari, an'analari va ijtimoiy hayoti haqida bilimga ega bo'ladi hamda boshqa madaniyat egalari bilan to'g'ri muloqot qilishni o'rganadi; • Turkiya va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi umumiylik va farqlarni anglab, madaniy bag'rikenglik asosida fikr yuritadi; • Turkiya davlati bo'yicha olingan bilimlar asosida tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga qodir bo'ladi; • Turkiyaning siyosiy tizimi, iqtisodiy rivojlanishi, ta'lim va madaniy hayoti to'g'risida mustahkam bilimga ega bo'ladi. 	<p>4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruh, mikrogruph bo'lib ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p>5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.</p> <p>Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.</p> <p>Talabalarning bilimini baholash mezonlari:</p> <p>5 (a'lo) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega</p>	